YANGI O'ZBEKISTONNI, ALBATTA, YOSHLAR BILAN BIRGA QURAMIZ

@intellektpress @intellektpress @intellektpress

# INTELLEKT

IJTIMOIY-TA'LIMIY, MADANIY-MA'RIFIY GAZETA

2022-YIL – INSON QADRINI ULUG'LASH VA FAOL MAHALLA YILI

2020-YIL 2-SENTABRDAN CHIQA BOSHLAGAN | 2022-YIL, 17-AVGUST № 14/15 (46) | E-MAIL: INTELLEKTPRESS@UMAIL.UZ

## KORRUPSIYANI YO'Q QILIB, TA'LIMGA E'TIBOR BERAYLIK



Yuksaklikka intilayotgan yurt, albatta, birinchi e'tiborini ta'limga qaratadi. Ta'lim sifati yaxshi, o'qitish tizimi mukammal bo'lsa, shu o'quv dargohidan, bilimli, o'z kasbini yaxshi biladigan, ishiga mas'uliyat bilan yondashadigan, yurt ravnaqi uchun hissa qo'shadigan kadrlar muntazam yetishib chiqaveradi. Ayniqsa, iqtidorli yoshlarga yo'l ko'rsatish, ularga ham ma'nan, ham moddiy yordam qo'lini cho'zish orqali ularning iste'dodlarini yanada yuzaga chiqarishga turtki berish mumkin.

Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini rivojlantirish, ularni qo'llab-quvvatlash uchun zarur sharoitlar yaratish, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini rag'batlantirish, intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish borasidagi islohotlarni tizimli amalga oshirish, shuningdek, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish maqsadida mamlakatimiz rahbari tomonidan qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli choralar ko'rildi.

Islohotlarni amalga oshirish doirasida fuqarolarning huquq va manfaatlari himoya qilinishini, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligini, jamoat va parlament nazoratini ta'minlash mexanizmlari takomillashtirildi, shuningdek, huquqni muhofaza qilish va sud organlari faoliyatining huquqiy asoslari isloh qilindi.

Biz yanada rivojlantirish sari olg'a qadamlar bosar ekanmiz XXI asrni O'zbekistonni rivojlanish asri deb atasak mubolag'a bo'masa kerak deb o'ylayman. Barcha sohalarda keskin burilishlar yasab biz to'g'ri yo'lda ketayotganimizni dunyo ahli kuzatib turibdi. Nega endi biz ta'lim sohasini korrupsiya qo'liga berib qo'yishimiz kerak, nega biz o'z oilamiz va xalqimizni himoya qilmasligimiz kerak.

Ta'lim sohasida ishlab turgan barcha mutasaddilar yaxshi biladi, korrupsiyani qayerda va qay ko'rinishda turganini, bunga kechiktirib bo'lmaydigan keskin choralar ko'rilyapti, lekin bu yetarli darajada emas. Qabul, ya'ni o'qishga kirishda shaffoflik tiklandi, o'quv jarayoni, ichki tartib, amaliyot va bitiruv jarayonida uchraydigan mayda lekin konveyer sifat korrupsiya ildizlari chekina boshladi.

Bu jarayonda barcha tizim va jamoa bo'lib birga kurashish maqsadga muvofiq. Agar biz ya'ni ta'lim sohasidagilar tashqi hujum va yuqoridagi bosimlarga bardosh qilsak, bu illat o'z-o'zidan yo'q bo'lishi mumkin.

Yana bir narsa, ta'lim muassasasidagi faoliyat olib borayotgan jamoaga talabalarning ota-onalarini ham yordam suv va havodek zarur bo'ladi. Dunyoning yetakchi ta'lim muassasalarida ham bir umumiy qonunga bo'ysinish yo'lga qo'yilgan: ta'lim muassasasi hududida talaba tarbiyasiga ota-onalar javobgar, talabaga beriladigan ta'lim sifati va bilim saviyasiga o'qituvchilar javobgar, lekin talaba tomonidan o'zlashtirilgan ta'lim sifati va bilim saviyasiga talabaning o'zi javobgarligi belgilab qo'yilgan.

Misol qilib aytadigan bo'lsak, oliy ta'lim tizimini korrupsiyasiz sohaga aylantirish borasida tizimli ishlar amalga oshirildi. 2021-yil 26-avgustdagi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining "Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida Komplayens nazorat tizimini joriy etish va korrupsiyaga qarshi kurashishni takomillashtirish to'g'risida"gi 373-son buyrug'iga binoan respublikamizdagi barcha oliy ta'lim muassasalarida Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limlari faoliyat boshladi.

Bugungi kunda mazkur bo'lim xodimlari tomonidan Samarqand davlat chet tillar institutida 2021-2022 o'quv yili yozgi semestr yakuniy nazoratlari, qayta topshirish imtihonlari, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bitiruvchi talabalarining bitiruv malakaviy ishlari va yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarini o'tkazish jarayonida korrupsion hatti-harakatlarning oldini olish yuzasidan profilaktik ogohlantiruv suhbatlari o'tkazildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 11-maydagi 02/25-11/05-sonli xatining ijrosi yuzasidan Samarqand davlat chet tillar institutida korrupsiyaviy xatarlarni aniqlash va ularni bartaraf etish hamda korrupsiyani oldini olish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi va o'rnatilgan tartibda tasdiqlandi.

Ushbu "Yo'l xaritasi"da belgilangan chora-tadbirlar bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi. Institutda faoliyat ko'rsatib kelayotgan professor-o'qituvchilar, xodimlar va tahsil olayotgan talabalar o'rtasida korrupsion huquqbuzarliklarni oldini olish va "Korrupsiyasiz soha" loyihasini amalga oshirish uchun doimiy ravishda umumprofilaktik tadbirlar doirasida me'yoriy hujjatlar bilan xodimlar tanishtirib borilmoqda.

Davomi 2-betda

## 86 NAFAR O'QUVCHILARIMIZ MUDDATIDAN OLDIN XALQARO NUFUZLI OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA O'QISHGA QABUL QILINDI

So'nggi yillarda Prezidentimiz tashabbuslari bilan mamlakatimiz ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchi va talaba-yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbeksiton Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-iyuldagi "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5260-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkasining 2021-yil 19-maydagi "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 312-son qarorlari yurtimizda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiyaga oid islohotlarning yorqin namunasidir.

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentabrdagi akademik litseylarni Oliy ta'lim muassasalari tasarrufiga o'tkazish to'g'risidagi PQ-3290 qarori asosida Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi nomiga o'zgartirilib, Samarqand davlat chet tillar instituti tasarrufiga o'tkazilgan.

Akademik litseyni bugungi kunda 308 nafar o'quvchilar bitirmoqda. Bitiruvchilarning 33 foizi, ya'ni 102 nafari til bilish darajasini aniqlovchi xalqaro yoki xalqaro sertifikatlarga tenglashtirilgan mahalliy sertifikatlarni qo'lga kiritdi. 27 foizi, ya'ni 86 nafar o'quvchilar esa muddatidan oldin xalqaro nufuzli oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishga muvaffaq bo'ldi.

Muhtaram yurtboshimizning 2020-yilning 3-dekabrida "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4910-son Qarori qabul qilindi.

Akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish uchun ilg'or xorijiy mamlakatlar malakali ekspertlarni jalb qilish, litsey o'quvchilarining kamida bitta xorijiy tilni puxta o'zlashtirib chiqishi uchun dars mashg'ulotlariga yuqori malakali pedagoglarni jalb qilish, ta'lim infratuzilmasini



muntazam ravishda rivojlantirib borish, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni akademik litseylarga saralab olish, shuningdek, chuqurlashtirilgan ta'lim dasturlari asosida o'qitish, akademik litseylardagi mavjud moddiy-texnik bazani mustahkamlab borish, bilimlarni mustaqil shakllantirish uchun sharoit va imkoniyatlarni kengaytirish kabilar yuqorida keltirilgan qarorda alohida belgilab o'tildi.

Davomi 2-betda

## INSOF

Uzun va izg'irinli tunlarning biri. Qor gupullab yog'yapti. Hattoki, derazaga chirs-chirs urilgan qorning ovozi ham aniq eshitiladi. Xona jim-jit. Hamma uxlagan. Faqatgina erib tugab borayotgan sham xonani unsizgina yoritadi. Sandal ham sovib qolgan. Har zamonda ukam alahsirab qo'yadi. Mening qalbimda esa xuddi shu uzun qorong'u tundek bir nima bor. U sira tinchlik bermaydi. Qalbimni qiynab o'rtagani o'ratgan. Na kunduzi na tunda tinchlik bor. Ehtimol, bunga sabab uyimizdagi muhitning yaxshi emasligidir. Ehtimol, o'gay onamning ha deb men bilan ukamni qiynashi, bor alamini bizdan olishi, tinchlik bermasligidir. Men-ku qiz bola bir kun bu uydan ketarman, ammo yolg'iz ukajonimchi?

Men ukam va dadamni qanday qilib bu berahm, bag'ritosh ayolning qo'liga tashlab ketaman? Balki, meni ukamning hech yorishmaydigan misoli tundek bo'lib tuyilgan kelajagi qayg'uga solayotgandir. Bilmadim… biladim…

Onamning vafotiga ham ikki yildan oshdi. Dadam qarindoshlar qistoviga ko'ra bu ayol bilan turmush qurgan edi. Endi esa o'zini o'zi kechira olmayapti. Shuning uchun ham tun-u kun ishda, ba'zan bir haftada bir keladi, unda ham bizni sog'inib ko'rish uchun. O'gay onamni shunda ham chakagi yopilmaydi. Bizni yomonlagani yomonlagan. Xullas, bizning tinchligimizni bermaydi, arzimagan xatolarni deb jazolar, hattoki, ikki kunlab nonsiz, ovqatsiz qoldiradi. Yaqinda maktab ham boshlanadi. Ukam yotib o'qiydigan internat maktabga ketadi. Men esa yana shunday bo'g'iq ziq holda yashaydigan uyda qoldim. Qorong'u tunda shunday og'ir hissiyotlar og'ushida qanday



uxlaganimni bilmay qolibman.

Shunday qilib yildan yil o'tdi. Zamon juda tezlikda rivojlandi. Bu orada ukam maktabni yaxshi tamomlab, yuridik universitetiga o'qishga kirdi. Men esa medtexnikumda o'qidim-u, o'gay onamning majburlashi bilan qo'shni mahallaga turmushga chiqdim. Mana uch yil bo'ldiki, dadam ham olamdan o'tdi.

O'gay onam huvillagan katta hovlida munkayib yolg'iz qoldi, chunki ukam ham bunday muhitda yashay olmay, shahardan yangi uy olgan va shu uyda yashayotgan edi. Endi esa menga ukamni uylantirish dardi tushgan. Axiri, o'ziga mos epchilgina bir qiz topdim – darrov roziligini olib to'yni kelishib oldik. Bu paytda rostdan ham o'gay onamning oldidan o'tishimiz kerak edi, axir u ham garchi hayotda yo'lini topa olmay qiynalib alamini biz jajji go'daklardan olgan bo'lsa-da, onamiz-ku. Shuning uchun ukam bilan uyimizga bordik. Hovliga kirar ekanmiz, fayzsiz, nursiz go'yo devorlari nurab ketayotganga o'xshab qolgan uyimiz anchadan beri qarovsiz edi. Ichkariga kirsak, onam betob ekan, o'zini ancha oldirib qo'ygan. Uni ko'rib juda achindik, rahmimiz keldi. Ukamning o'zi uni shaharga uyga olib ketdi.

Davomi 2-betda

## TA'LIMDA YANGICHA ISLOHOTLAR

***Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq.***

**Shavkat MIRZIYOYEV.**



Bugungi global hayotimizni ilm-fan, ma'rifat va tafakkursiz tasavvur qilish qiyin. Ta'lim – rivojlantirish muhim bo'lgan jahonning yetakchi qatlamlaridan biri. Yangi O'zbekiston allaqachon yangicha islohotlarning maydoniga aylanib ulgurgan, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismi, albatta, oliy ta'limdagi islohotlar bilan uzviy bog'liq.

Oliy ta'lim sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar qamrovni oshirish, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy holatini yaxshilash, professor-o'qituvchilarni moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratildi. Xorijiy mamlakatlar bilan qo'shma ta'lim doirasidagi aloqalar kuchaytirilib, 64 ta yangi kasb bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Ko'rsatilayotgan shuncha harakatlarga qaramasdan, aholi ta'lim sifatida o'zgarish yo'q ekanligini aytmoqda. Ta'limda amalga oshirilishi muhim strategik vazifalar bu:

– talabalar mustaqil shug'ullanishlari uchun mos sharoit yaratish;

– Oliy ta'lim muassasalarida qog'ozbozlikni yo'q qilish va asosiy ahamiyatni talabaning bilimi va erkin fikrlariga qaratish;

– Korrupsiyasiz jamiyatda rivojlanish bo'ladi, ilm-fan bo'ladi, ana shunday jamiyatni yaratish;

– Eski ta'lim standartlariga chek qo'yish;

– Ta'lim dasturlarini o'qituvchilarga emas, balki ta'lim bozori talablariga moslab tuzish. Chunki bugungi kunda talabalar sohalariga daxldor bo'lmagan fanlar bilan shug'ullanib qolishmoqda;

– O'quv jarayonlarini kredit-modul tizimiga o'tkazish;

– Tizimdagi eng muhim vazifalardan biri – qabul jarayonlari. Shaffoflikni ta'minlab berish birinchi navbatdagi vazifa. Talabalarga qulay sharoit yaratish maqsadida yotoqxonalarga ko'proq e'tibor qaratish va yotoqxona o'rinlari sonini oshirish.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun yo'l ochdi. Intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlarni aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ta'lim sohasidagi islohotlar dolzarbligi hamda ahamiyatliligi bilan boshqa sohalardagi islohotlardan qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir.

**Vasila QILICHEVA,**
**SamDCHTI talabasi.**

## *QISQA SATRLARDA*

### O'G'RI

– Bekam, bizdan nima ayb o'tdi?! Haydamang, mendek bir bevaga rahm qiling, bolalarim och qoladi! – dedi xizmatkor ayol doimiy yordamchisi 16 yashar qizining yelkalaridan qucharkan.

– Mana, qizingizni cho'ntagidan chiqdi, – bekaning qo'lidagi qimmatbaho soat yaraqlab ketdi, – O'g'limga rahmat deng, politsiyaga xabar berishimizni istamadi...

Qiz ko'z yoshlarini yashirdi. Labini tishladi...

Yigit esa cho'ntagidagi homiladorlik testini paypaslab qo'ydi...



### URF-ODAT

To'y dabdabali o'tdi. Kelinchak bunday baxtni hayoliga ham keltirmagandi. Hayhotdek hovli joy, ko'p qavatli dang'illama uy, qo'sha-qo'sha mashinalar...

Endi to'ydan keyin oxirgi urf-odatlarni o'tkazishayotgandi. Qimmatbaho zeb-ziynatlarga burkangan baxtiyor kelinchak kelin salomni tugatdi. Uy xizmatchisining esa javobini berib yuborishdi...

### ORZULAR...

Bolakay qimmatbaho mashina oynasidan pul uzatdi.

"Boy ekan. Mashinasida har kuni sayr qilsa kerak!" – o'yladi tilanchi bolakay.

"Har kuni ko'chalarda yugursa kerak!" – uning oyoqlariga havas bilan tikildi mashinadagi bolakay.

### NIYAT VA IJOBAT

Yeringni ikki metri meniki! – dedi qo'shnim chegaralarimiz orasini chamalar ekan, – Devor urmay tur! – qo'lidagi ketmonini yerga sanchdi, – O'zim hali belgilab beraman!

– Xo'p, aka! – dedim ko'zlaridagi hissizlikka hayrat bilan qarab. Uning ko'zlarini shu zahoti zafar uchqunlari egalladi.

– Shundoq bo'lsin! Bir haftalarda qaytaman!

Bir haftadan keyin o'zi istagandek ikki quloch yerga ega bo'ldi. Faqat, meni hovlimdan emas...

### NAMOZ

U har safar masjid yonidan o'tganida, besh mahal azon ovozini eshitganida, chuqur ho'rsinib: "Ertaga, albatta, o'qishni boshlayman" – derdi.

Vanihoyat, "ertaga" keldi...

U masjid ostonasida turardi. Birdan azon ovozi eshitila boshladi...

Uning ruhi tanasidagi daxshatli og'riqni his qildi-yu, chirqiragancha, qabri tomon uchdi...

### "HOLAT VA IMKONIYAT"

Yillab qilingan parvarishlar va da'vo choralariga qaramasdan so'ngi noyob oq karkidon jon taslim etdi. Odamlar hisobsiz ko'z yoshlar to'kishib, hayvonlar muhofazasi uchun cheksiz hisoblar ochishdi...

Yirtqich qush o'ljasi – hali joni chiqib ulgurmagan 5 yashar qizcha tepasida sabr bilan kutmoqda. Suratkash bu "ta'sirli" hodisani suratga oldi. Butun dunyoga taqdim etdi va mislsiz mashhurlikka erishdi. Odamlar suratni bag'rilariga bosishib, cheksiz ko'z yoshlar to'kishdi. Yirtqichning esa qorni to'ydi...

### AYOL QALBI

Ayol eridan qattiq hafa bo'lib qovog'ini uyib oldi.

– O'zim olmasam, hecham olib bermaysiz, – dedi qo'lidagi qimmatbaho atirni ko'rsatar ekan.

Davomi 3-betda

# KORRUPSIYANI YO´Q QILIB, TA´LIMGA E´TIBOR BERAYLIK

*Boshlanishi 1-betda*

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori hamda “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 829-sonli Vazirlar Mahkamasining qarori, shuningdek, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining “Oliy ta’lim tizimida “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirishni tashkil etish to‘g‘risida”gi va “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tizimida Komplayens nazorat tizimini joriy etish va korrupsiyaga qarshi kurashishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi buyruqlari yuzasidan Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi tomonidan 43 ta umumprofilaktik, targ‘ibot-tashviqot tadbirlari o‘tkazildi.

Joriy yilning may-iyun oylarida institutda korrupsion holatlarning oldini olish borasida ishlab chiqilgan “Yo‘l xaritasi”da belgilangan chora-tadbirlarni fakultet tomonidan belgilangan muddatlarda ijro etilishi to‘g‘risida, Samarqand davlat chet tillar instituti 2021/2022 o‘quv yili bahorgi semestr yakuniy nazoratlari, qayta topshirish imtihonlari, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bitiruvchi talabalarining bitiruv malakaviy ishlari va yakuniy davlat attestasiyasi sinovlarini o‘tkazish jarayonida korrupsiyaviy hatti-harakatlarning oldini olish yuzasidan Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi tomonidan barcha fakultetlarning 156 nafar professor-o‘qituvchilari va rahbar xodimlari bilan 16 ta profilaktik ogohlantiruv suhbat o‘tkazildi.

Fakultetlarda faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar va xodimlar tomonidan institutning ichki tartib qoidalari, lavozim yo‘riqnomalariga qat’iy rioya qilinishi, o‘z ishiga halol bo‘lishi, korrupsion va ta’magirlik holatlariga yo‘l qo‘ymasliklari fakultetlar rahbariyatiga alohida uqtirildi.

865 ta professor-o‘qituvchilar va xodimlar o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha deklaratsiyalar olindi va tahlil qilib borilmoqda. Shuningdek, institutda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash choralarini ko‘rish maqsadida tuzilmalar rahbarlarining fikr-mulohazalari, takliflarini inobatga olgan holda doimiy monitoring tashkil qilindi.

Korrupsiya xavfiga eng ko‘p moyil bo‘lgan funksiya va lavozimlar muntazam tahlil qilib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Samarqand davlat chet tillar instituti xodimlarining malaka va ko‘nikmalarini orttirish, ularda korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish maqsadida 725 ta professor-o‘qituvchilar va rahbar xodimlar bilan 47 ta umumprofilaktik tadbir o‘tkazildi. Oliy ta’lim muassasasiga yangi ishga qabul qilingan va faoliyat olib borayotgan barcha professor-o‘qituvchilar va xodimlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvini yuzaga keltirmaslik, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etmaslik maqsadida ulardan



tilxatlar va kafolat xatlari olinishi yo‘lga qo‘yildi.

Tizimda korrupsiyaviy holatlarning oldini olish, shuningdek, ish samaradorligini oshirish, institutda faoliyat yuritayotgan xodimlarning rotatsiyasini tashkillashtirish hamda rahbariyatga taqdim etish maqsadida ularning ish faoliyati va davri tahlil qilinib borilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-axloq qoidalariga rioya qilinishi, manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va tartibga solish, korrupsiyaga qarshi kurashishda murosasizlik darajasini oshirish hamda kronizm, nepotizm, favoritizm kabi huquqbuzarliklarni oldini olish maqsadida institutning 812 nafar talabalari orasida anonim so‘rovnomalar o‘tkazildi. So‘rovnomalar tahlil qilinib, natijalari bo‘yicha rahbariyatga taqdim etib borilmoqda.

Jumladan, 5 nafar institut o‘qituvchilari va xodimi tomonidan sodir etilgan korrupsion holatlar aniqlanib, ularga nisbatan xizmat tekshiruvi o‘tkazilib, tegishli intizomiy jazo choralari qo‘llanildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi Samarqand viloyati Ichki ishlar Boshqarmasi Korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish bo‘limi bilan hamkorlikda “Korrupsiya – dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo‘lgan global muammolardan biridir” mavzusida Samarqand davlat chet tillar instituti talabalari orasida umumprofilaktik tadbirlar ham muntazam o‘tkazilib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosi yuzasidan budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi va davlat xaridlarini amalga oshirish yuzasidan shaffoflikni ta’minlash maqsadida ma’lumotlar institutning rasmiy veb-saytiga doimiy ravishda joylashtirildi va bo‘lim tomonidan monitoring qilib boriladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusiga oid bosma ko‘rinishdagi va tarqatma materiallar tayyorlandi. Jumladan, “Komplayens nazorat” tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha “Me’yoriy hujjatlar to‘plami” hamda “Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplayens) tizimini joriy etish bo‘yicha Qo‘llanma”lar ishlab chiqildi, 160 nusxada chop etildi va institut rahbariyatiga, professor-o‘qituvchilariga hamda xodimlarga taqdim etildi.

Umuman olganda, bugungi kunda ilm-fanga qaratilayotgan e’tibor, ta’limga ajratilayotgan sarmoyalar yosh avlodning kelajakda yurtimiz ravnaqi yo‘lida fidokorona xizmat qiladigan kadrlar bo‘lib yetishishida dasturulamal bo‘ladi.

Zero, biz ishonamizki, ta’limga qaratilgan e’tibor hech qachon o‘zining samarasini bermay qolmaydi. Shijoatli yoshlarimiz berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, el koriga yaraydigan farzandlar bo‘lib yetishib chiqajak.

Maqsadimiz – ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini ta’minlash orqali mehnat bozoriga zamonaviy va kasbiy bilimlarni chuqur egallagan, aqlan yetuk, o‘z kasbining ustasi bo‘lgan malakali va raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlashdir.

**Ilhomjon TO‘XTASINOV,**
**Samarqand davlat chet tillar instituti rektori,**
**pedagogika fanlari doktori, professor.**

# 86 NAFAR O´QUVCHILARIMIZ MUDDATIDAN OLDIN XALQARO NUFUZLI OLIY TA´LIM MUASSASALARIGA O´QISHGA QABUL QILINDI

*Boshlanishi 1-betda*

Qaror ijrosini ta’minlash maqsadida Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyida ham bir qator istiqbolli rejalar amalga oshirildi. Jumladan, mazkur o‘quv yilida o‘quvchilar ichida tanlov e’lon qilinib, eng iqtidorli a’lochi o‘quvchilardan 10



nafariga “Akademik litseyimiz iftixori” stipendiyasi, 42 nafariga esa “Rektor stipendiyasi” berildi.

Pedagog xodimlarning mehnatini munosib rag‘batlantirish maqsadida o‘quvchilari viloyat va respublika olimpiadalarida sovrinli o‘rinlarni egallagan va 70% dan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan pedagog xodimlarning 10 nafariga 30% gacha qo‘shimcha ustama haqi belgilandi.

Akademik litseyda yanvar oyida chet tili o‘qituvchilari uchun “The importance of Project-based learning in teaching researching and writing skills” mavzuda xalqaro semenar tashkil qilindi. Semenarda Samarqand shahridagi akademik litsey va maktablardan chet tili o‘qituvchilari ishtirok etib, malakasini oshirdi.

Shuningdek, litsey axborot resurs markazida avtomatlashtirilgan ARMAT dasturi o‘rnatilgan bo‘lib, dasturning ma’lumotlar bazasi muntazam to‘ldirilib boriladi. Bugungacha 1000 nomdagi adabiyotlarning bibliografik yozuvlari kiritilib elektron katalog shakllantirildi.

Undan tashqari ma’naviy-ma’rifiy sohada ham qator ishlar qilinmoqda. Ya’ni davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbus doirasida amalga oshirilgan ishlar borasida mulohaza yuritadigan bo‘lsak, birinchi tashabbus, ya’ni yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarni inobatga olgan holda 1 ta musiqa to‘garagi, 24 ta fan to‘garagi, 7 ta sport to‘garagi, 1 ta badiiy havaskorlik to‘garaklarining muntazam faoliyat olib borishi ta’minlagan. Mazkur to‘garaklarga jami 250 nafarga yaqin o‘quvchi-yoshlar jalb qilingan.

Shuningdek, ikkinchi tashabbus doirasida “SamDCHTI akademik litseyi” sport klubi muntazam o‘z faoliyatini olib bormoqda. Sportning mini-futbol, voleybol, stol tennisi, badmenton, shaxmat-shashka sport to‘garaklarining faoliyati yo‘lga qo‘yilib, ularga jami o‘quvchilar qamrovi 167 nafarni tashkil etadi. Shu o‘rinda ta’kidlashim joiz, 2020/2021 o‘quv yilida litseyning xorijiy tillar yo‘nalishi o‘quvchisi Abdurasulov Ikrom sportning 100 katakli shashka turi bo‘yicha o‘tkazilgan respublika turnirida faxrli 1-o‘rinni egallab, oliy ta’lim muassasasiga davlat granti asosida o‘qishga kirish imkoniyatini qo‘lga kiritdi.

Uchinchi tashabbusga kelsak, zamonaviy talablar asosida jihozlangan 5 ta kompyuter sinfi, 1 ta lingafon sinfi, 2 ta IT xonasi o‘quvchi-yoshlarni zamonaviy axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini oshirish uchun xizmat qilmoqda. Jumladan, litseyda 36 ta kompyuter yuqori tezlikdagi internet tarmog‘iga ulanib, ARMda Wi-Fi tizimi o‘rnatilgan va bir paytda 200 nafardan ortiq o‘quvchilar internetdan unumli foydalanishlari mumkin.

To‘rtinchi tashabbus doirasida 2021/2022 o‘quv yilida “Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon” mavzusida insholar ko‘rik tanlovi, “Eng kitobxon o‘quvchi” ko‘rik tanlovi bo‘lib o‘tdi hamda “Vatanimga tayanchman” mavzusida videoroliklar ko‘rik tanlovi o‘tkazildi.

Beshinchi tashabbus doirasida esa o‘quvchilarning qiziqishlari inobatga olinib “Men tadbirkorlikka qiziqaman” shiori ostida tadbirkorlikka qiziqishlari mavjud o‘quvchilar uchun to‘garak tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4910 son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida akademik litseyning moddiy-texnik ba’zasini boyitish, litseyda ta’lim sifatini mustahkamlash va metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlash uchun 1 milliard so‘m miqdorida Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan pul mablag‘lari ajratilgan.

Shundan moddiy-texnik ba’zani boyitish uchun 47 575 000 so‘mlik 17 ta televizor, 10 000 000 so‘mlik 4 ta printer, internet tarmoqlari uchun 6 417 000 so‘mlik kommunikasion jihozlar, 7 406 375 so‘mlik 4 ta svichli kommunikator, jixozlar bilan ta’minlash uchun 20 399 850 so‘mlik 30 ta kompyuter stollari, 16 449 000 so‘mlik kompyuter stullari, 6 000 000 so‘mlik 164 dona badiiy kitoblar xarid qilindi.

Shuningdek, 2021-yilda o‘quv binolarini ta’mirlash uchun 200 000 000 so‘m, oshxona va sport zalining ta’miri uchun 100 000 000 so‘m sarflandi. Institut tomonidan litseyni raqamlashtirish maqsadida 98 811 800 so‘mga 2 ta zamonaviy IT xonalari ta’mirlandi, 10 dona proyektor va kompyuter jamlanmasi bilan ta’minlandi. Zamonaviy internet tarmog‘i uchun 1000 metr masofadagi optik shisha tolali internet tizimiga ulandi.

49 000 000 so‘mga o‘quvchilar va o‘qituvchilarning ommaviy sport bilan shug‘ullanishlari uchun sport anjomlari, kutubxona fondini boyitish maqsadida o‘quv va 20 800 000 so‘mga badiiy adabiyotlar, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida turli xil musiqa asboblari sotib olindi.

Bir so‘z bilan aytganda amalga oshirilayotgan barcha istiqbolli rejalarimiz kelajakda o‘quvchi-yoshlarning mukammal bilim olib, o‘z sohasining ustasi bo‘lib yetishishida muhim o‘rin egallaydi, degan umiddamiz. Maqsadimiz o‘quvchilarimizning fanlarni chuqur o‘zlashtirishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishdir. Shijoatli yoshlarimiz berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, el koriga yaraydigan farzandlar bo‘lib yetishib chiqadi.

**Zokir BAZAROV,**
**Samarqand davlat chet tillar instituti**
**akademik litseyi ijrochi direktori.**

# ABAY – MA´RIFATPARVA SHOIR



Abay – o‘qituvchi, shoir, pedagog, faylasuf, siyosiy arbob, islom diniga tayangan holda qozoq madaniyatini, rus va Yevropa madaniyatiga yaqinlashtirish orqali yangilashni maqsad qilgan islohotchi. Barchaga ma’lum, Abay Qo‘nanboyev qozoq mumtoz adabiyotining asoschilaridan biri, qozoq adabiy tili asoschisi. Abayning asl ismi Ibrohim bo‘lib, buvisining “ehtiyot bo‘lsin, abay bo‘lsin” degan ma’noda nomlab ketgan taxallusidir.

Abayning she’riyatida, u yaratgan asarlarda qozoq xalqining ijtimoiy, siyosiy, axloqiy muommolarini yoritgan. U o‘z she’rlarida tarqoq qozoq qabilalari birlashishga, hamjihatlikka chaqirdi, ilmli va ma’rifatli bo‘lishga undadi. Shoir bir o‘lanida:

***O‘zi bilan yovlashgan yurtim, tingla!***
***O‘zi bilan dovlashgan yurtim, tingla!***
***Dardingga davo bo‘lsin o‘lanlarim,***
***Bir-birini ovlashgan yurtim, tingla!***

– deya iztirob, g‘am chekadi.

Ibrohimning qozoq aabiyoti va o‘zbek adabiyotidagi “Sho‘rlik qozog‘im”, “Boy bolasi bilan kambag‘al bolasi”, “Ilm o‘rgan”, “O‘lan” kabi she’rlari so‘zimizning yorqin misoliga aylangan. Abay adabiyotiga nazar solsak 176 she’ri, 17 kuyi, 56 tarjima va o‘zbek tilida “Nasihatlar” bilan mashhur bo‘lgan asari mavjud.

Abay lirikasi boy xazina, bu bitmas-tuganmas, chuqur va sirli merosdir. Abay lirikasi rang-barang, she’rlarida umuman lirika tushunchasiga xos bo‘lgan barcha sifatlar mavjud. Abayni yolg‘iz qayg‘u va shodlik shoir na g‘amgin, na kulgili shoir deb atash mumkin emas. Bularning barchasi Abay lirikasida mujassam. Uning sirli she’rlaridagi arzimagan, eng oddiy tuyg‘u ham o‘quvchining ruh tizimini, kayfiyatini to‘lqinlantirib, barcha tugmachalarni bosib chegarani gapirganday kuylaydi.



Abay ijodiy merosining salmoqli qismini xalqni ilm-ma’rifatga, madaniyatga da’vat qiluvchi “Naqliya so‘zlar” majmuasi tashkil etadi. Hassos adib va shoir ushbu asarida inson hayotida muhim o‘rin tutadigan aql, ilm-ziyo, insof va adolat, yaxshi xulq, muomala madaniyati, din, e’tiqod, davlatni idora qilish, xalqlar, elatlarning ahil, do‘stona munosabatda bo‘lishlari haqida mulohoza yuritiladi. Asar 45 bo‘limdan iborat. Abay qalamiga mansub ushbu «so‘z»larning har biri yoshlar uchun ezgulikka da’vat, yomon xulqlardan ogoh bo‘lishga chorlovchi chaqiriqlar sifatida yangilanadi. “Naqliya so‘zlar” asari o‘zbek tilida “Nasihatlar” nomi bilan mashhur bo‘lib ketgan. Bu asarni sevimli bolalar yozuvchisi Nosif Fozilov o‘zbekchaga tarjima qilgan.

Abay she’riyatining deyarli hammasi lirikalik, mavzulari tabiat, ijtimoiy-siyosiy masalalardan turadi.

***O‘lan.***
***O‘lan-so‘zning poshshosi, so‘z sarasi,***
***Qiyindan qiyiltirar er donasi,***
***Tilga yengil, yurakka iliq tegib,***
***Tep-tekis, siliq keksin aynalasi***

– deya 1890-yilda tarjima qilgan Mirtemir.

Abay o‘zgacha og‘zaki kuylab kelingan o‘lanlarni yozma adabiyotga olib kirgan shoir, millat arbobidir. Shoir o‘lanlarni yozma yaratishdan tashqari, ularga kuy bastalab mahorat bilan kuylagan. U bastalagan 17 ta o‘lan kuyi hozirgacha sevib ijro etiladi. Shoir yirik voqeaband asarlar ham yaratgan. Abayning “Iskandar”, “Ma’sud”, “Azim rivoyati” kabi dostonlari hozirgacha el orasida mashhur manba hisoblanadi.

Abay qozoq chorvachiligi bilan bir qatorda savdo-sotiq va ma’lum bir tadbirkorlik bilan shug‘ullanishiga o‘rgatish zarurligini ta'kidlagan. Shoirni qattiq tashvishga solgan shart-sharoitlar qozoqlarning ommaviy qashshoqlanishi va tilanchilikning boshlanishi, chor hukumati amaldorining o‘ta zulmi, mahalliy hokimiyatlarning poraxo‘rlik va qoniqmagan xudbinligi edi. U she’rlarida yaqin qarindoshlariga yordam qo‘lini cho‘zmaydigan ziqna boylarni o‘ldirishga harakat qiladi. Ularning boyligini, xalq uchun bo‘lmasa tanqidlar bilan, she’rlar yozar, xalq ma’nfatini ustun qoyishga harakat qiladi.

Abayning oilasi katta bo‘lib, ota-onasi, ukasi, to‘rt o‘g‘li bo‘lgan. Ukasi Shokarim shoir, tarjimon, bastakor, yozuvchi. Afsuski, ikki katta o‘g‘li uzoq yashamagan, og‘ir xastalik tufayli vafot etgan. Uchinchi o‘g‘li Mag‘aviya otasining xohishiga ko‘ra, dostonlar yozib adabiyotga qadam tashlagan. To‘rtinchi o‘g‘li To‘raqul shoir va yozuvchi sifatida bir qator asarlari saqlanib qolgan. Abayning boshiga tashvish tushishi 1891-yildan boshlanadi. Avvalo, ukasi, keyin o‘g‘li, undan keyin uchinchi o‘g‘li Mag‘aviya ko‘z yumgandan 40 kundan keyin Abay ham vafot etadi. Millatparvar shoir, mamlakat arbobi 1904-yili bu yorug‘ dunyodan ko‘z yumadi.

Abay qozoq jamiyati, ahli uchun tinimsiz mehnat qildi, ko‘pgina doston u she’rlarida yaxshilik qilishni, boylik-ma’nfatga qaramasdan xalq odami bo‘lishni ta’kitladi. Uning "Ma’sud" dostonida yaxshilik yasagan bolaning boyligi o‘rtib, keyin shu boylikdan boshqani ko‘zlari kormay vafot etgani tasvirlangan. Yozgan she’rlarida bilim olishni, izlanishni ta’kidlab, "bilimli odam xor bo‘lmas" – degan fikrida qattiy turdi.

Hozirgi kunda "Abay" va "Abayning she’riyati" yuqori baholanib kelmoqda. Abay ismi bilan kitoblar, o‘limi to‘g‘risida ko‘pkina o‘rganishlar Muxtar Avezovning "Abay yo‘li" 4 tomlik kitobi so‘zimizga yaqqol misol bo‘ladi. Abayning o‘zi tirik bo‘lmasa ham, uning bizga qoldirgan manbalari, adabiyotga qo‘shgan hissasi barhayot!

**Asem ABDURAHMONOVA.**

# INSOF

*Boshlanishi 1-betda*

Oradan oylar o‘tdi. Ukam o‘gay onamni to‘ygacha yaxshi shifoxonalarda davolatdi. Hozir ancha darmon kirib, tetiklashib, o‘ziga kelib qolgan. Balki, o‘gay onamni bizga bergan shuncha azoblari uchun Alloh jazosini bergandir. Garchi bizga onalik vazifasini qilmagan bo‘lsa-da, onamiz. Mayli, boshidan kechirgani shu bo‘lsin. To‘yga ham sanoqli kunlar qoldi. To‘yni o‘zidan yugur-yuguri qiziq deyishganidek, men o‘zimda yo‘q xursandman. Qani edi, dadam bilan oyijonim ham shunday baxtli kunimizda yonimizda bo‘lsa, deb xayolimda o‘tkazib qo‘ydim.

Bugu to‘y. Sahnada savlat to‘kib turgan ukam va unga uzukka ko‘z qo‘ygandek yarashgan kelinimga qarab beixtiyor ko‘zlarim namlandi. Qalbim endi baxt quyoshi porlagan go‘zal tongdek yorishdi. Ularga qarab ko‘zim quvnadi. Nogahon, bir chetda kelin-kuyovga qarab ko‘zlaridan duv-duv yosh oqayotgan o‘gay onamga ko‘zim tushdi. Ko‘nglim g‘alati bo‘lib men ham yig‘lab yubordim.

**Dilnoza OCHILDIYEVA.**

# SAMARQAND – MADANIYATLAR CHORRAHASI

Tarixiy yozma manbalarda Samarqand yoshi va qadimiyligi haqida ma’lumotlar bor. Samarqand va Rim insoniyat taqdiridagi buyuk xizmatlarini nazarda tutib “Boqiy shaharlar” nomini olganlar. Xalq iborasi “Samarqand sayqali ro‘yi zamin ast” ya’ni “Samarqand yer yuzining sayqali (jilosi)” deb behuda aytilmagan. Amir Temur Samarqandni mehr bilan qadrladi, obod qildi, dunyoning sayqaliga aylantirdi.

“Samarqand” so‘zining kelib chiqishi haqida bir qancha tahminlar mavjud. Sharq mualliflari “Samarqand” so‘zining 1-qismi, ya’ni “Samar” so‘zi shu shaharga asos solgan yoki shaharni bosib olgan kishining nomi deb hisoblab, bir qancha sun’iy ta’riflarni taklif etdilar. Ammo tarixda bunday ismli kishi haqida ma’lumotlar aniqlanmagan. So‘zning 2-qismi “kent” (kand) – qishloq, shahar degan ma’noni bildiradi. Ba’zi yevropalik olimlar, bu nom qadimdan qolgan, sanskritcha “Samarya” yaqin, ya’ni “yig‘ilish, yig‘in” so‘zidan kelib chiqqan deb izohlaydilar. Antik mualliflarning asarlarida shahar Marokanda deb atalgan. Bu haqiqatga ancha yaqin bo‘lib, Marokanda – Samarqand atamasining yunoncha aytilishidir.

XI asr olimlaridan Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Qoshg‘ariy shahar nomining kelib chiqishini “Semizkent”, ya’ni “semiz qishloq” so‘zining buzib talaffuz qilinishi deb tushuntiradilar. 1404-yilda Samarqandga tashrif buyurgan Ispaniya elchisi Ruy Gonsales de Klavixo ham bu talqinni qo‘llab quvvatlaydi.

Dunyoning eng buyuk shoir va faylasuflari uni – qalb bog‘i, sharq durdonasi, dunyoning ko‘zgusi va hatto yer yuzining sayqali deb atashganlarida ham, ular bu go‘zal shaharning barcha go‘zalligi va boyliklarini tasvirlab berolmagan bo‘lardilar. XXI asr boshlarida shahar YUNESKOning umumjahon merosi ro‘yxatiga "Samarqand – madaniyatlar chorrahasi" nomi bilan kiritildi!

Samarqandni chinakam noyob shahar, deb atash mumkin! Samarqandning madaniy merosi juda katta. Asrlar davomida bu shahar Buyuk Ipak yo‘lining asosiy markazi bo‘lib kelgan. Hozirgi kunda ham ushbu madaniy meroslar dunyo e’tirofiga sazovor bo‘lib kelmoqda. Bu azim shaharning tarixiy, insonni o‘ziga jalb qiluvchi mo‘jizakor inshootlari yer yuzi aholisida ulkan qiziqishlar uyg‘otmoqda. Zero, isbot tariqasida har 2 yilda o‘tkazilib kelinayotgan “Sharq taronalari” musiqiy festivalining aynan mana shu o‘lkada o‘tkazilishi, dunyo bo‘ylab son sanoqsiz turistlarning, tashriflarini keltirish mumkin.

